

Suvda eriydigan yelim asosli bo'yoqlar **“guash”** deb ataladi. Bu soʻz fransuz tilidan kelib chiqqan boʻlib, “gouache” soʻzi “suvli boʻyoq” degan maʼnoni anglatadi.

Guashning oʻziga xosliklari:

- Guash ajoyib qoplanish xossasiga ega. Shu sababli guashda boʻyash orqali ishdagi xatoliklarni bekitish juda oson.
- Bu boʻyoq hidsiz.
- Guash bilan ishlangan rasmlar tez quriydi.




1. Guashning afzalligi nimada?
2. Guash akvareldan nimasi bilan farq qiladi?
3. Guash va akvarelning qanday umumiy jihatlari bor?



Ikki bir xil rasm chizing

Bitta rasmni guashda, ikkinchisini akvarelda boʻyang. Ulardagi ranglarning xossalarini solishtiring va Venn diagrammasini tuzing.



Guashda rasm chizamiz

2

